



QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATI TAHLILINI AXBOROT BILAN TA‘MINLASH

Qo‘shoqov Faxriddin Baxtiyorovich

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda axborot bilan ta‘minlashning ahamiyati yoritilgan. Muallif axborot texnologiyalari va statistik ma‘lumotlarning iqtisodiy tahlildagi o‘rni, qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyatini samarali rejalashtirishdagi roli haqida fikr yuritadi. Maqolada iqtisodiy salohiyatni aniqlashda axborot resurslaridan foydalanish usullari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy salohiyat, qishloq xo‘jaligi, axborot ta‘minoti, tahlil, axborot texnologiyalari, korxonalar samaradorligi, rejalashtirish, statistik ma‘lumotlar, menejment, raqamli transformatsiya.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini to‘g‘ri baholash va tahlil qilish ular tomonidan strategik va boshqaruv qarorlarini oqilona qabul qilish imkonini beradi. Bunday tahlil jarayonlarining samaradorligi, avvalo, zamonaviy axborot texnologiyalarini, xususan, raqamli axborot tizimlarini amaliyotga keng tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda agrar sohada raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi axborot oqimining tezkorligi va sifatini oshirib, ishlab chiqarish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy kabi mamlakatlarda “raqamli qishloq xo‘jaligi” konsepsiyasi asosida shakllantirilgan agroaxborot tizimlari fermer xo‘jaliklarining rentabelligini ko‘tarish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham agrar sohani modernizatsiya qilish, resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda statistik va operativ ma‘lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda axborot bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish, mavjud axborot resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

Iqtisodiy salohiyat — bu korxonaning mavjud resurslari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarining majmuasidir. U ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada samarali foydalanish imkonini beradi. Iqtisodiy salohiyatni aniq baholash va tahlil etish uchun yuqori sifatli, kompleks va tizimli ma‘lumotlar bazasi zarur (Kuryanov, 2019).



Tahlilning asosiy manbalari sifatida moliyaviy va iqtisodiy hisobotlar — buxgalteriya balansi, daromad va xarajatlar to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari va iqtisodiy natijalar haqidagi ma’lumotlar — muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlariga oid statistik ma’lumotlar — ekin maydonlari, hosildorlik, chorvachilik ko‘rsatkichlari, texnik vositalardan foydalanish samaradorligi — ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

Mehnat resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlar — xodimlar soni, malakasi, mehnat unumdorligi va ish vaqtining foydalanish darajasi — mehnat salohiyatini baholashda muhimdir. Shuningdek, urug‘, o‘g‘it, yoqilg‘i va boshqa material-texnik resurslar bilan ta’minlanganlik holati ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bozor va marketing muhiti haqidagi axborotlar — mahsulot narxlari dinamikasi, sotuv statistikasi, raqobat sharoiti — korxonaning tashqi iqtisodiy imkoniyatlarini belgilashda asosiy mezonlardan biridir. Shuningdek, iqlim va tabiiy resurslar haqidagi ma’lumotlar — ob-havo, tuproq, suv resurslari, geoeologik omillar — ishlab chiqarish natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy texnologik innovatsiyalar va raqamli yechimlardan foydalanish darajasi esa korxonaning raqobatbardoshligi hamda iqtisodiy o‘sinh istiqbollarini aniqlaydi. Shu bois, mavjud salohiyat va tashqi muhit tahlili asosida ishlab chiqiladigan strategik rejalar barqaror rivojlanishning poydevorini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini to‘liq tahlil etish uchun ishonchli axborot manbai — bu buxgalteriya (moliyaviy) hisobotidir. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunida buxgalteriya hisobi xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlar asosida uzluksiz qayd etish, ularni tizimli umumlashtirish va moliyaviy hamda boshqa turdagi hisobotlarni tuzish jarayonidan iborat ekani belgilab qo‘yilgan.

Mazkur qonunning 22-moddasida moliyaviy hisobot buxgalteriya subyekting moliyaviy holati, faoliyat natijalari va pul oqimlari to‘g‘risidagi tizimlashtirilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi qayd etilgan. Shuningdek, 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun Kontseptual asos” hamda “1-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)”da moliyaviy hisobotlarning tuzilmasi va sifat talablari belgilangan.

Unga ko‘ra, yillik moliyaviy hisobot to‘plamiga buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar hisobotlari, xususiy kapital harakati hisobotlari, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotlar hamda izohlar kiradi. Hisobotlar foydalanuvchilar uchun ahamiyatli, ishonchli, xolis, taqqoslanadigan va tushunarli bo‘lishi shart.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida tuziladigan maxsus hisobot shakllari — xo‘jalik jarayonlari, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat resurslari, mahsulot turlari, moliyaviy natijalar hamda davlat qo‘llovi kabi yo‘nalishlar bo‘yicha keng ma’lumot beradi. Ushbu





ma'lumotlar tahlil, boshqaruv va rejalashtirish qarorlarini asoslash uchun muhim axborot bazasini tashkil etadi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini ishonchli va to'liq baholash — buxgalteriya hisobotlari asosida tahliliy yondashuvni kuchaytirish, raqamli axborot tizimlarini joriy etish va ma'muriy boshqaruv samaradorligini oshirishni talab etadi. Shu yo'l bilan iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, raqobatbardoshlikni oshirish va agrar sohada strategik rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yekimov S. et al. Building the potential of an agricultural enterprise //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – T. 677. – №. 2. – C. 022075.
2. Viacheslavna Z. O., Anatolievna O. J. Business activity of agricultural enterprises. Problems and solutions //Азимут научных исследований: экономика и управление. – 2020. – Т. 9. – №. 4 (33). – С. 151-153.
3. Antoshchenkova V. Main elements of the resource potential of agricultural enterprises as the basis of economic and food security //Ekonomichnyy analiz. – 2020. – Т. 30. – №. 3. – С. 291-298.
4. Абдувохидов, Акмал, et al. "Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ўсиш сифатини аниқлаш ва унинг кўрсаткичлари таҳлили." *Iqtisodiyot va ta'lim* 23.4 (2022): 16-31.